# EHTIYOT YARIM HAYOT DEGANIDIR



**Ehtiyot yarim hayot deganidir**

So’x tumani favqulodda vaziyatlar bo’limi xodimlari tomonidan davlat tassarrufidagi ob'ektlarda, ijtimoiy soha ob'ektlari, ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalarida sodir bo’lishi mumkin bo’lgan favqulodda vaziyatlar, yong’inlar, is gazidan zaharlanish va gaz-havo aralashmasining chaqnashi bilan bog’liq baxtsiz hodisalarni oldini olish maqsadida profilaktik tadbirlar olib borilyapti.

Profilaktik tadbirlarda ishchi xodimlari o’rtasida profilaktik suhbatlar olib borilib, isitish pechlari hamda elektr jihozlaridan xavfsiz foydalanish, ularni xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda o’rnatish tushuntirib o’tilmoqda bundan tashqari ovqatdan zaharlanish botulizm kabi holatlar yuzasidan ham mutahasislar tomonidan targ’ibotlar olib borilmoqda.

**So’x tumani hokimligi Axborot xizmati**



**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating]**

[Facebook] | [Telegram] | [Telegram murojaat] | [Youtube] | [Instagram]

2025-01-09 17:27:55